

30-iyun – O‘zbekiston yoshlari kuni



Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N: 25 (67242)  
2019-yil 24-iyun

# Tong yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O‘zbekiston Respublikasi bolalar va o‘smirlar gazetasi ISSN-2010-6092

27-IYUN — MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI



## BOLALIKDAGI ORZUSIGA ERISHGAN BAXTLI INSONMAN —

deydi taniqli suxandon, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan  
madaniyat xodimi Dildora RUSTAMOVA:

– San’atkorlar oilasida ulg‘ayganim sabab, bolaligidan ota-onam talaffuzimga katta e’tibor berishardi. Juda ko‘p kitob o‘qir edim. O‘quvchilik chog‘imdayoq suxandonlik kasbiga havas qilganman. Taniqli suxandon Dilfuza opa Yusupovaning «Multipanorama» ko‘rsatuvini olib borishlariga mahliyo bo‘lgandim.

Bir kuni uyimizga san’atkorlar kelishgan. Ular qo‘shni xonadan mening ovozimni eshitib, «uyingizda radio yoqilganmi?», deb so‘rashgan ekan. Buni qarangki, o‘shanda

men ukam va singlimga ertaklarni obrazga kirib so‘zlab berayotgandim.

Men poytaxtimizdagi xitoy tiliga ixtisoslashtirilgan 59-maktabda o‘qiganman. Adabiyot, rus va xitoy tili fanlarini yaxshi ko‘rardim. Keyinchalik esa Toshkent Davlat san’at institutining teatrshunoslik fakultetida tahsil olganman. O‘zbekiston Milliy Universitetining xalqaro jurnalistika fakultetida magistraturani ham davom ettirdim. 1997-yil Respublika miqyosida o‘tkazilgan «Suxandonlik» tanlovida

ishtirok etib, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasiga ishga qabul qilindim. Shundan buyon mana shu tabarruk dargohda faoliyat olib boryapman. Ko‘rib turganingizday, men bolalikdagi orzusiga erishgan baxtli insonlardanman.

Mening ham siz aziz o‘quvchilar tengi ikki qizim bor. Ular kelajakda shifokor bo‘lishni orzu qilishadi. Yurtimizdagi barcha bolalar men kabi orzulariga yetib, baxtli yashashlarini tilayman.



# IJODIY MAHORATNING TO'RT SHARTI

Qo'lingizga qalam-qog'oz olib yoza boshladingizmi, shu qadar hayajon bosadiki, ehtiros to'lqinlari ko'ksingizning qaysi tolalaridan kuch olayotganini sezmay qolasiz. Nima haqda so'z boshladingiz? Kimlarga qarata yozaysiz? Aytar so'zlaringizni xayolan bo'lsada, tartibga keltirdingizmi?

Gazeta yo jurnalga xabar yozdingizmi? Yaxshi! Xat yozmoqchimisiz? Yana yaxshi! O'qigan kitoblaringizdan tug'ilgan taassurotlaringizni qog'ozga tushirib qo'yishga odatladingizmi? Nihoyatda go'zal bu ishingiz! Ehtimol, kundalik tuta boshlagandirsiz? U holda... u holda bundan ellik yillar ilgari men o'zim muhtalo bo'lgan dardga ro'para kelibsiz! Yozish dardi, bilganlarini, ko'nglidan kechirganlarini, o'zini behalovat qilgan o'y-xayollarni qog'ozga muhrlash dardi muborak bo'lsin! Hamon shunday masrur onlar botbot ko'nglingizni shod qilayotgan ekan, demak, xulosa chiqarishimiz mumkin: Siz qo'lga qalam tutajak ijod yo'lidasiz!

Shu bugun, ya'ni mam-lakatimiz matbuotchilari, jurnalistlari o'z kasb bayramlarini nishonlayotgan kunlarda shaxsan Sizga atalgan ezgu niyatlarimni o'rtoqlashishga kirishganim bejiz emas. Siz va biz bir kasb sohiblari va sohibalarimiz! Bugun «Tong yulduzi» yo «G'uncha», «Gulxan» yo



**Xurshid DO'STMUHAMMAD,**  
yozuvchi, filologiya fanlari doktori

«Yosh kuch» sahifalarida ism-sharifingiz ko'rina boshladimi, bo'ldi – Siz jurnalistika maydonidasiz! Endi Siz uchun halovat qayda? Yozishning eng katta yuki ham shunda – qo'lga qalam tutgan inson borki, boshqa ko'plab odamlar qatori bekorchilik, bemaolqarchilik, hatto xotirjamlik unutiladi. O'ylaysiz, izlaysiz, mutolaa qilasiz, yozasiz-o'chirasiz, yozasiz-o'chirasiz... bu jarayon muttasil yutuqlar, kezi kelganda esa, mag'lubiyatlarga to'lib-toshadi. Hayot va ijod Sizni mudom chig'iriqqa soladi, bardoshingizni sinaydi, qalamga bo'lgan sadoqatingizni bamisoli o'tda toblaydi, har safar undan qay yuz bilan chiqishingizdan qat'iy nazar ijod zavqi-ishtiyogi yana va yana navbatdagi sinovlar

maydoniga yetaklaydi.

Ustoz ijodkorlar ko'p, bosma va elektron nashrlar istagancha, ular Sizni va tengqurlaringiz ijodini eshik ochib kutib turishibdi. Tasavvur qiling, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan ommaviy axborot vositalarining soni 1500 taga yetayozdi! Faqat shuni unut-mangki, mazkur ommaviy axborot vositalaridan qay birini tanlamang, birinchi navbatda ijodiy mahorat hal qiluvchi ahamiyatga ega. So'zga e'tibor, jumla va gap tuzilishiga e'tibor Sizning ijodkor qalamkash sifatidagi taqdiringizni belgilaydi. Yuksalish yo'lingizni belgilaydi.

Jurnalistikaning uch tayanch nuqtasi, sharti haqida ko'p gapiriladi. Bular – tezkorlik, haqqoniylik va

xolislik. Jurnalist bo'lish orzucidagi har bir yosh ijodkor ushbu talablarni hamisha yodida saqlamog'i darkor. Tez yozing, to'g'ri yozing, xolis yozing! Biroq, bu hali hammasi emas. Ijodiy mahoratningizni belgilovchi talablar bu bilan tugamaydi. O'rni kelganda, g'oyatda zarur deb bilganim bir xususiyatni eslatgim kelyapti.

*Samimiyat! Yozgan maqolangiz (janridan, hajmidan, mavzusidan va hokazolardan qat'iy nazar) barcha talablarga javob bersa yaxshi, albatta, lekin ularga qo'shimcha o'laroq tanlagan so'zlaringiz, tuzgan jumla-yu gaplaringiz samimiylik bulog'idan*

*sug'orilib tursa, olam guliston! Ko'ngillar charog'on! O'quvchilaringiz qalbiga nur sochib turadi bu samimiylik, yozganlaringizning ta'sirchanligini chandon oshiradi. Sizni ko'p va xo'p yozishga undaydi, matbuotimizga bo'lgan hurmat-e'tiborni oshiradi. Matbuoti, jurnalisti hurmat-e'tiborga sazovor jamiyatda hayot muttasil ravnaq topadi – yuksaladi, taraqqiy etadi. Shu boisdan ham yuqorida sanab o'tilgan uch asosiy shartga to'rtinchi shart sifatida mazkur tuyg'uni ham qo'shib qo'ysak aslo kam bo'lmaysiz, aziz yosh va navqiron hamkasblar.*

Ijodiy parvozlar hamisha hamrohingiz bo'lsin!



**Visola AL-LAYEVA, Surxondaryo viloyati, Angor tumanidagi 1-umumta'lim maktabi bitiruvchisi:**

– Kechagina jonajon maktabimda ilk qadam qo'yganimda bir kun kelib uni oltin medal bilan bitirishim kimning xayoliga kelibdi, deysiz?! Men a'lola

ga o'qish kerakligini shunchaki o'quvchilik vazifam deb bilardim. Hamisha fan olimpiadalari-yu turli tanlovlarda faol qatnashishga harakat qilardim. Kattalar

aytishgandek, intilganga tole yor ekan. O'n bir yil

## KO'KSIDA OLTIN MEDAL PORLAGAN YOSHLAR



11-sinfni a'lo baholarga tamomlagan sirdaryolik bitiruvchilarning 18 nafari oltin va 7 nafari kumush medal bilan taqdirlanishdi.

davomida puxta bilim olishga bo'lgan intilishlarim samarasini ko'rib, bu yutug'imdan, ayniqsa, ota-onam behad xursand ekanliklarini his etib, juda hayajonlandim. Ustozim Munavvar opa Botirova bilan taqdirlash marosimiga otlar ekanmiz, barcha dugonalarim-u maktabdoshlarim menga havas bilan qarashdi. Nazarimda, ular ham shunday yutuqni qo'lga kiritishni niyat qilishdi. Shahar markaziga yetib borganimizda, katta tantananing guvohi bo'ldik. Viloyat hokimi o'rinbosari oltin medalni ko'ksimga taqib qo'yganida, go'yo sahnada quyosh porladi. Uyga qaytganimda esa mahallamizda, xonadonimizda katta ziyofat boshlangan edi. Otam qo'y so'ydirib katta osh damlatdi, momom duo qildilar.

Eh, qadrlil tengdoshim, bilimdonlik bilan quchilgan zafar va mehnatning tagi chindan ham rohat-u saodat ekan.



# KELAJAK ISHONCHLI QO'LLARDA

Kasb bayramimiz arafasida tahririyatimiz qoshidagi «Yosh qalamkash» to'garagining eng kenja, ammo serg'ayrat a'zolari Sayidaziz Samatov bilan Ibrohim esa mahallasidagi bir quchoq gul ko'tarib tabriklagani kelishdi. Quvonarlisi, ular quruq kelishmabdi. Sayidaziz tengdoshlarining ayrim nojo'ya xatti-harakatlari, Ibrohim esa mahallasidagi kamchiliklar haqida maqola yozib kelibdi. Maqolalarni ovoz chiqarib o'qidim-da, ulardan bir-birlarining maqolalari to'g'risidagi fikrlarini so'radim. Sayidaziz tushmagur Ibrohim akasining maqolasidagi kamchiliklarni shunday asosli ko'rsatdiki, bu bahsni tinglab turib ko'z oldimdan bundan besh-o'n yil muqaddam xuddi shu to'garak qatnashchilari Zohidjon Xolov, Bobur Ubaydullayev, Sohijon Xotamovning shiddatli tortishuvlari, yanayam uzoqroqda – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Temur Ubaydullayevning «Mahorat darslari»da taniqli jurnalistlar Jo'ra Xolqosimov, Jo'ra Sa'dullayev, Sharof Ubaydullayev, Muxtor Xudoyqulovlarning Temur akaning shogirdlari – Dilshod Shams, Elmira Rahmatullayeva,

Umida Azimova yozgan maqola, lavhalar haqidagi kuyunchaklik bilan aytilgan tanqid va maqto'vlar yangraganday bo'ldi.

– Jurnalistikani adabiyot bilan adashtirmang, – degandi Xudoyberdi To'xtaboyev to'garak a'zolariga, – Shoir yoki yozuvchi bo'lmoqchi bo'lsangiz jurnalistikaga emas, filologiya fakultetiga kirib o'qing. Chunki ikkisi bir-biridan farq qiladi. Jurnalist – tezkor, tahlilchi, murosasiz bo'ladi. Jurnalistning zimmasidagi vazifa ancha og'ir. Chunki u jamiyat, xalq dardi bilan yashaydi. Muammolarni hal qilishda bevosita ishtirok etadi...

Men xayol surib bo'lgunimcha, Ibrohim Sayidazizning, Sayidaziz esa Ibrohimning fikrlari asosida maqolalarini qayta ishlab qo'yishibdi. Maslahatlashib, fikrlashib ishlash qanday yaxshi-ya! Binoyiday maqola



**Muhabbat HAMIDOVA,**  
**O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi,**  
**«Shuhrat» medali sohibasi**

bo'libdi. Jurnalning keyingi soniga bemalol bersa bo'ladi. Men yosh do'starimga qarab turib, matbuotimizning bo'lajak fidoyilarini, nurlil kelajagini ko'rganday bo'ldim. Demak, kelajak ishonchli qo'llarda!

Men zahmatli mehnatimizda bizga ko'makdosh bo'layotgan yosh muxbir do'stlarimizni bugungi bayram bilan chin qalbdan tabriklayman!

## BOSHLOVCHILIK JON-U DILIM

**Maktabda o'tkaziladigan bayramlarda boshlovchilik qilish jon-u dilim. Turli tadbirlarda o'zimizning she'riy mashqlarimdan tengdoshlarimga o'qib berish menga zavq bag'ishlaydi. Dugonalarimni ham ijodkorlikka qiziqtirib qo'yg'anman.**



Zabardast adibimiz Tohir Malik bilan bo'lgan adabiy uchrashuvda qatnashib, marhum ustozimizning so'nggi saboqlaridan bahramand bo'lgan edim. Bugun ular bergan maslahatlardan yanada ilhomlangan holda kichik hikoyalarni, she'rlar mashq qilmoqdaman. Kelajakda jurnalist bo'lish orzum bor. Shu bois bizni tengdoshlarim ijodi bilan tanishtirib borayotgan, yo'l-yo'riq ko'rsatayotgan «Tong yulduzi» gazetasi bilan ham «do'stlashib» oldim.

**Robiya MIRZOHI DOVA,**  
**poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 13-umumta'lim maktabi o'quvchisi**

**Mening sevimli nashrim «Tong yulduzi» gazetasidir. Uning har bir sonini intilqilik bilan kutib, har bir sahifasini zo'r qiziqish bilan o'qiyman. Kitob javonimdan sevimli nashrimning taxlamlari joy olgan. Turli mavzudagi she'rlar, maqolalarni o'qib, zavqlanaman. Tengdoshlarimning erishgan yutuqlaridan faxrlanaman. O'zim ham shunday iqtidorli, iste'dodli yoshlar safidan o'rin olganligim bilan g'ururlanaman.**

## MAQSADIMGA ERISHSAM...

Gazeta sahifalarida mening ham she'rlarim bosilgach, she'riyat bo'stoniga dadil kirib bordim. She'riyat gulshanining turfa iforli gullari, nurlari bahor faslidek qalbimga zavq bag'ishlaydi va ilhom beradi.

Mening «Dil izhorim», «Zulfiya ayamga o'xshasam deymen», «Diyorim – iftixorim» kabi she'riy to'plamlarim nashr etilgan. «Diyorim – iftixorim» kitobim «Eng ulug', eng aziz» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida ikkinchi o'ringa munosib ko'rilib, diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandim. Shuningdek, Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanida Respublika yoshlar ittifoqining

1-Yosh ijodkorlar forumida faol ishtirok etib, sertifikat bilan taqdirlandim. «Zulfiyaxonim izdoshlari» respublika tanlovida qatnashdim.

Kelajakda men ham jurnalist bo'lish niyatidaman. Maqsadimga erishsam, balki sevimli gazetamda ishlash baxtiga ham musharraf bo'larman.

**Umida SULAYMONOVA,**  
**NDKI akademik litsey o'quvchisi**

## MAKULATURA KITOBLARDAN IBORATMI?

**Tumanimizda mo'jazgina kutubxona bor edi. U yerga ko'pincha yozgi ta'til kunlari borib turardim. Kunlarning birida kutubxonaga borsam, o'zini adabiyotning ashaddiy ixlosmandi hisoblovchi ma'naviyat targ'ibotchisi bo'lib faoliyat yuritayotgan bir kishi eski kitoblarni makulaturaga topshirish uchun yig'ayotgan ekan.**

– Eski, yaroqsiz kitoblarni yig'ib qo'ygandim, hozir mashina chaqirganman, berib yuboraman, – dedi.

Kutubxona ayvoniga chiqib qarasham, chindan ham bir mashinaga yuk bo'lgulik eski kitoblar bor ekan.

– Nahot bularni makulaturaga topshirsangiz, axir bular nodir kitoblar-ku, – dedim.

U kishi bo'lsa: «E, nima qilasiz bularni, muqovasini qarang, chirib ketgan-ku», dedi.

Ma'naviyat targ'ibotchisining gaplariga hayron qoldim. Axir kitobning muqovasi muhim emas-ku. Asosiysi, ichidagi oltinga teng fikrlar, ma'nolar xazinasini-ku.

Bir zumda makulatura mashinasi ham yetib keldi.

– To'xtang, bir-ikkita o'zimga kerakli kitoblardan olvolay, shularning og'irligiga teng qog'oz

berardim, – dedim.

Ma'naviyat targ'ibotchisi unamadi.

– E, nima qilasiz, eski kitoblarni? Baribir bular kitob javoningizni bezamaydi. Do'konlarda muqovasi qattiq, chiroylilari to'lib yotibdi, – deya javob qaytardi.

– Kitobning sirti yaltirog'ini nima qilaman? Muhimi, kitob ongimni quyoshdek charog'on qilsin, – deya amallab bir-ikkita kitoblarni olib qoldim. Qanchadan-qancha insonlarni ziyonurlaridan bahramand etishi mumkin bo'lgan bu kitoblarga achindim.

**Durdona MIRSOATOVA,**  
**Toshkent viloyati, Piskent tumanidagi 5-umumta'lim maktabi o'quvchisi**



## YO'LINGIZ OQ BO'LSIN!



**Xosiyat RUSTAMOVA,**  
«Kitob dunyosi» gazetasi Bosh muharriri,  
«Oltin qalam» XIV milliy mukofoti sohibasi

Jurnalistika! Bu so'zni ilk bora bolalik kunlarimning birida kattalardan eshitgandim. Bu chet tilidan kirib kelgan so'z bo'lgani uchunmi yo jurnalistika o'sha kuniyoq o'z sehri bilan rom etgani sababmi, men jurnalist degan so'zni sevib qoldim va o'z hayotimni shu so'zning yonida tasavvur qila boshladim. Adabiyot darsxonalari-da boshlangan ijodiy yo'lim tuman gazetasi mo'jaz tahririyatidan, keyinroq esa viloyat va respublika nashrlaridan o'tdi. Mana, bugun sa'y-harakatlarimiz sabab jahon minbarlari biz uchun ochiq.

Shu o'rinda bir jihatni eslatib o'tay, kelajakda jurnalist bo'lmoqchi bo'lgan bolalarda iste'dod, salohiyat, kirishimlilik, bilim va ishtiyoqdan tashqari yana mehnatkash-

lik, tinib-tinchimaslik fazilatlarini ham mujassam bo'lishi kerak. Bir kun fikrlash va harakatdan to'xtadingizmi, tamom!

Shunaqa, bolajonlar. Jurnalistning ishi qiyin, ammo oson ishning o'zi bormi dunyoda? Siz qaysi kasbni egallamang, unda hurmat topishingiz uchun kun-u tun mehnat qilishingiz lozim.

Maktabingizda bo'lgan tadbir haqidagi maqola bo'ladimi yo fan olimpiadasida g'olib bo'lgan do'stingiz haqida ocherkmi – farqi yo'q, yoza-yotgan mavzugiz kattami, kichikmi, unga mahorat bilan yondashing. Ana o'shanda havaskor qalamkashdan haqiqiy jurnalistga aylanasiz.

Bilaman, siz o'zingizni jurnalistika sohasida shunchaki sinab ko'rmoqchi emas, balki shu soha ichida yashamoqchisiz. Yo'lingiz oq bo'lsin. O'qish, yozish, tinimsiz izlanish bir kun, albatta, o'z mevasini beradi. Kun kelib, shu xalq sizni xizmatlaringiz uchun o'z mehri va e'tirofi bilan taqdirlaydi.

## TO'GARAKLAR DOIM GAVJUM, – deydi Navoiy viloyatidagi 16-DIUM direktori Nozima opa Tog'ayeva.

Bolajonlar, bilasizmi, ta'til kunlarini endi maktabingizda ham mazmunli o'tkazishingiz mumkin. Bundan xabaringiz bor, albatta. Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan 5 ta muhim tashabbusni hayotga tatbiq etishga astoydil kirishgan Navoiy shahridagi 16-DIUM jamoasi tomonidan ushbu maskan o'quvchilarining ta'til kunlari mazmunli o'tishi uchun ko'plab to'garaklar tashkil etildi.

– Maktab jamoasi va o'quvchilari uchun ushbu tashabbus ayni muddao bo'ldi. Boisi, maskanimiz oromgoh sifatida yoz bo'yi o'quvchilar bilan gavjum bo'ladi.



Tarbiyalanuvchilarning ta'til davomida bilimlarini mustahkamlab, kelgusi yildagi o'quv jarayoniga tayyorgarlik ko'rishlari uchun ham sharoitlar yaratilgan, – deydi Nozima opa.

– Men «Mohir qo'llar» to'garigiga qatnab, ustozim yordamida atirgul maketini yasadim. Bundan o'zim ham zavqlanib ketdim. Ta'til davrida yana boshqa buyumlarni yasashni o'rganib olmoqchiman, – deydi Charos Teshayeva.

– Aktyorlikka juda qiziqaman. Shuning uchun ushbu to'garakka a'zo bo'ldim. Men o'ynagan kichik rollarim barchaga manzur bo'ldi, – deydi Aziza Azamatova.

Shuningdek, 26-iyun – Giyohvandlikka qarshi

kurash kuni va «Yoshlar oyligi» munosabati bilan Navoiy viloyati Narkologiya dispanseri xodimi A.Narzullayev o'quvchilarga «Giyohvandlik, chilim va elektron sigaretalarning zarari» mavzusida davra suhbatini o'tkazdi. Davra suhbatidan o'quvchilar o'zlariga tegishli xulosa chiqarib olishdi.

Bir so'z bilan aytganda, bu o'quvchilar ham hunar o'rganish-yapti, ham bilimlarini mustahkamlashyapti. Asosiysi, farzandlari ishonchli qo'llarda ekanligidan ota-onalarning ko'ngli xotirjam.



*Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadimda bir malika yashagan ekan. U gilam to'qish hunarini mukammal egallagan ekan. Bir kuni undan shahzoda: «Sen bir boy-badavlat malika bo'lsang, hunar o'rganib, nima qilasan?» deb so'raganida, u: «Kuni kelib, asqotishi aniq. Keling, hunarimni sizga ham o'rgatay» debdi...*

## HAR TA'TILDA BIR HUNAR

Ertakning davomini o'zingiz ham bilsangiz kerak-a, aziz bolajonlar?!

Shahzoda qarog'chilar qo'lga tushib qoladi. Malikadan o'rganagan hunari asqotib, omon qoladi. Shunday ekan, men ham malika singari sizning hunar o'rganishingizni va kelajakda har qanday sharoitda qo'lidan ish keladigan, salohiyatli inson bo'lishingizni istardim. Yozgi ta'til esa buning uchun eng qulay palla. Esimda, o'quvchilik yillarimda bir yili yozgi ta'tilda dugonalarim bilan tikuvchi qo'shnimiznikiga chiqib, tikuvchilikni o'rganardik. Nafisa xola dastlab qalpoqcha, cho'ntak, fartuk kabilarni tikishni o'rgatgandi. Qizlar bilan goh suhbatlashib, gohida qo'shiq xirgoyi qilib bichish-tikishni o'rganiganimiz haligacha asqotadi menga. Ta'til tugab, so'nggi mashg'ulotimizda hammamiz o'zimizga tikkan ko'yagimizni kiyib ko'rsatib, rosa quvondik. Qo'shni xolaga rahmatlar aytdik. Maktabni bitirgach, ona tili va adabiyot faniga ixtisoslashtirilgan litseyda tahsil olishni rejaladim. Lekin onam yana hunar o'rganishim uchun o'qishni tibbiyot kollejida davom ettirishni maslahat berdilar. Kollejda hamshiralikni o'rganish bilan birga, ona tili va adabiyot fanidan puxta bilim olishga intildim. Ta'lim dargohini bitirar ekanman, onajonim: «Ana endi ikkita hunaring-u, qo'lingda diploming bor. Barakalla, ona qizim!» dedilar. So'ng, oliygohga hujjat topshirib, orzumdagi jurnalistlik kasbini egallash tomon qadam tashladim. Buni qarangi, oliygohning birinchi kursini tugatganimda onam yana o'sha masalaga qaytdilar: «Tengdoshlaring «Mashhura», «Iflatli kelin» kabi turli o'quv kurslariga qatnashmoqda. Sen ham endi pazandachilikni o'rgan», dedilar. Shunday qilib, jazirama yozgi ta'tilni «pishir-kuydir» bilan o'tkazgan bo'lsam-da, uch oy ichida lag'mon cho'zishni, shiringina pishiriqlar tayyorlashni bilib oldim. Xullas, ta'til degani men uchun hunar egallash pallasini hisoblanardi. Umr o'taverar ekan. Insonning oltiniga teng yoshlik davri qaytmas ekan. O'sha pallada o'rganiganimni o'rganib qoldim. Afsuski, xorijiy tillarni puxta o'qishga ulgurmagan ekanman. Hayotda har bir o'rganib-o'rganmaganlarimning o'rni har kuni bilinadi. Bugun farzandim barobarida yurtimizning



har bir bolasiga onamning o'g'itlarini aytgim keldi.



# BAYRAM FAZILATI

Har bir inson tabiat bilan uyg'unlikda yashaydi va har bir kunining qadriga yetib, bayram sifatida nishonlashga oshiqadi. Yana bir xislati, bayram kunlaridan o'ziga xos ibrat izlaydi. Bu shunchaki balandparvoz gaplar emas, xalqimizning qalbiga quloq tutsak, fikrimizning to'g'riligiga amin bo'lamiz.

Yurtimizda «Dehqon taqvi» bo'yicha Saraton kezmogda. Bu oyni yoz chillasi ham deydilar. Qish chillasi achchiq ayoz bilan tabiatni muzlatsa, Saraton esa aksincha, yolqinli nafasi, o'tli harorati bilan tabiatga jo'shqinlik, yosharish va yangilanish baxsh etadi.

Tibbiyot mutaxassislarning fikrlariga ko'ra, saraton oftobida chiniquqan odam qish sovuqlariga chidamli bo'ladi, ba'zi kasalliklar shu oyda chiqib ketadi, faqat bunday paytlarda oftob urishidan, terini kuydirishdan ehtiyot bo'lish lozimligini ham aytib o'tishgan ular.

Bu kunlarda, siz bolalar, yanada o'zgaschasiz. Eng qisqa tunni, eng uzun kunni kutayotgandirsiz?.. Dalalarda oftobning ham

o'zgacha nur sochayotganini, mevalarning shirasi ortib, sharbatga aylanganini, bahorda ekilgan nihollarning unib-o'sib ketishi ham shu oyga bog'liq ekanligini ham bilsangiz kerak. Buva-momolarin-

gizdan: «Yaxshi kel-sa saraton, pisand emas qahraton»,

«Saratonni is-siq deb yotma, qo'lingdagi naqdni yo'qotma»,

«Saratonda ekin-dan hol so'r, kuzga borib, barakali xirmonni ko'r», degan ajoyib maqollarni eshitgansiz va ularning zamiridagi bir olam ma'noni teran anglagansiz.

Ana shunday fazilatli oyning ajoyib kunida sizga eng katta boylik – ma'naviyat ulashayotgan «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatidagi jurnalist aka-opalaringiz, yurtimizdagi siz sevgan va izzat-hurmat-ingizda bo'lgan o'z sohasining fidoyilari kasb bayramlarini nishonlayaptilar. Jurnalistlar ham saratonga o'xshaydilar. Ular



To'liqin HAYIT, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

o'zgacha insoniy fazilatlari, qo'llaridagi oddiy qalamlari bilan qalbingiz shirinliklarini qiyomiga yetkazadilar. Ana shu jihatlari bilan ular chindan ham o'zgacha insonlardir.

Bu ezguliksevar insonlarni, barcha hamkasblarimizni fazli bayramlari bilan suyuqli gazetangiz orqali tabriklash imkoniga ega bo'lganimdan va bu shodiyonaning guvohi ekanligimdan mamnunman!

## Lesson 25

### CHANGES IN INDIRECT SPEECH

There are no tense changes in indirect speech if the reporting verb is in a present tense; this is often the case with simultaneous reporting or when the original words were spoken a short time ago and are still relevant:

e.g. Nodir: *I have just arrived in the USA.*  
Nodir says he has just arrived in the USA.

The reported words are true at the time of reporting:  
e.g. Islom: *I'm meeting my grandparents tomorrow.*  
Islom said he is meeting his grandparents tomorrow.

The reported words express a general truth:  
e.g. *Once people believed that the earth was flat.*  
The reported words refer to an unreal situation:

e.g. Murod: *I wish I was a year older; then I could join the team.*  
Murod wished he was a year older, so he could join the team. (he is not older)

### Tense changes

Tenses change in indirect speech if the reported words are no longer true or are out-of-date; this is often the case when we report something after the reference point of the original statement and the reporting verb is in a past tense:

e.g. Farhod in 2010: *I have never been to Australia, but I'm thinking about going there.*

When I met Farhod in 2010, he said he had never been to Australia, but he was thinking about going there.

We want to report objectively; when we do not know whether the reported words are true, and we do not want to suggest that they are:

e.g. Temur: *Sorry, I can't go to work this week. I'm ill.*  
He said that he was ill.

The past perfect and past perfect continuous tenses do not change. In complex sentences, the past simple and past continuous may remain unchanged if the temporal relationship between the events in the clauses is clear from the context

e.g. Sevara *When I was writing my thesis, I spent a lot of time at the library.*

Sevara recalled that when she was writing her thesis she spent a lot of time at the library.

Muhammadsharif FAYZULLAYEV



### HOW TO BE A JOURNALIST



Write every day. Journalism consists mostly of writing, whether it's an article or live-tweeting a story. You need to be a strong writer who has a voice, and the way to get there is practice. Daily writing allows you to get your practice and helps build your confidence, which is key to succeeding as a writer/

Keep a journal or log of your activities.

Offer to help your friends and relatives by completing writing tasks to help them with work or self-promotion. For example, create a short newsletter for your club.

Build your grammar skills. You need to be able to proofread and edit your writing so that you can produce clean copy. Use a spellchecker to avoid misspellings, and proofread to make sure that you don't have any typos. Make sure any revisions and edits are made to the article, but check to ensure that your word processor isn't setup to show comments or changes.

Use sample texts to help you develop new skills. Find articles that you like and try to write your own article in a similar way. This is called using a mentor text. Your mentor text serves as a model for how an article should be written.

Choose a style to emulate, or experiment by writing the same story in different writing styles.

Outline an article that you think is formatted well, and write your own article in the same format.

Use sample texts to practice new ways of writing, but make sure that you don't try to pass off someone's writing or unique style as your own.

Be speedy and accurate. Journalists have a quick turn-around time between assignment and deadline. Think about how fast news is reported after it happens. To be a good journalist, you need to be able to meet your readers' expectations by producing speedy and accurate work.

Practice by setting a time limit for yourself to complete writing tasks. When your time is up, stop writing, even if you're not finished. Assess your performance to see if you're meeting your goals. Try to improve each time you do the exercise.



Internet source





## O'ZBEKISTON

Shu aziz yurt farzandiman, Xizmatiga doim tayyorman. Bo'lgum elga munosib farzand, Yuksak erur ko'nglimdagi ahd.

Bunda erur baxtlar mujassam, Yoshlar emas hech kimsadan kam. Shodlik, quvonch xalqiga yordir, Chunki bu yurt O'zbekistondir!

**Farangiz NOMADULLAYEVA,**  
Guliston shahridagi 9-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## CHUMOLIGA

Issiq yozda mehnat qilib,  
Qishda ko'rding rohatni.  
Insonlarga ko'rsatasan,  
Sabr ila toqatni.  
Oilangga don-u dunni,  
To'plab sira tinmayan.  
Kamtarginam mehriug ulug',  
Buni o'zing bilmaysan.  
Senga o'xshab yashasalar,  
Oilalar bo'lib jam.  
Mehnat bilan topilgan non,  
Hech kimni qilmaydi kam.

**Maftuna NOSIROVA,**  
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 21-umumta'lim maktabi o'quvchisi



## BOG'BON

Bog' yaratgan odamning,  
Rizqi baland bo'ladi.  
Ishlari ham yurishib,  
Ko'ngli nurga to'ladi.

Bog'da har xil mevalar,  
Yetishtirar bog'bonlar.  
Elga xizmat qiladi,  
Doim beminnat ular.

**Muhammadyusuf OBIDJONOV,**  
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 59-umumta'lim maktabi o'quvchisi

# SIZ – SO'Z EGASISIZ

Qo'llariga qalam tutgan aziz o'quvchim! Siz adoqsiz orzular bilan ko'nglingizdan o'tganlarini qog'ozga to'kkingiz keladi. Xayollaringizni jamlab yozishga chog'langaningizda, yelkangizga kimdir qo'lini qo'ygan-day bo'ladi. Atrofga qaraysiz – hech kimsa ko'rinmaydi! Oq qog'ozga termilib o'ylarga tolmoqchi bo'lasiz – shunda qog'oz ko'zguna aylanib, aksingiz ko'rinadi.

Zimmangizdagi mas'uliyat ekanini anglab yetasiz. U – so'z aytish yuki. Bu saodatga erishmoq zamirida nafaqat o'qish, izlanish – shaxsiy fikr va xulosa uyg'unligi dadil odimlamog'ingiz uchun pillapoyaga aylanadi. Siz ko'zlagan manzilingiz tomon yo'lga chiqasiz – bosgan har qadamingiz saboq beradi. Ko'rgan va eshitganlaringizni muqoyasa qilish va aniqlikdan yo'lingiz ravonlashadi. SIZ – so'z egasiga aylanasiz! Endi har qatimiga ming jilo joylagan so'zlarni saralash nechog'li yumushligini his qilasiz. So'zlarni tenglamoq istab, tarozu izlaysiz, bir misqolda adashish ham aldanishdir. Siz bunga aslo yo'l qo'ymaysiz, qo'yolmaysiz. Bitganlaringizning so'nggiga imzongiz yoziladi. Ismi-sharifingiz bu qiyofangiz! Fikringiz – botiniy va zohiriy tafakkuringiz ifodasi.



**Dilfuza SHOMALIKOVA,**  
«G'uncha» jurnali Bosh muharriri

Qadrdon o'quvchim! Siz buni teran anglaysiz. Hamisha tengdoshlaringizdan bir qadam, yo'q, bir necha qadam oldinda bo'lmoqlikni niyat qilasiz. Ko'zlaganingiz olis ko'rinsa-da, mutolaa qilganingiz sayin maqsadlaringiz tomon solingan yo'l yaqinlab boradi. Bolalik yuringingiz kutgan rejalar sog'inchi sizni katta odamga aylantiradi. Muntazam mutolaadan inson yuksalib-yuksalib boradi. Kitobning bag'ri dunyoning bag'ridan ming chandon kenayib ketgandek. U bilan oshno bo'lganingiz sayin, bag'riga boshingizni qo'yingiz keladi. Suhbatlashganingiz sayin koinotning sirlarini bilganday o'zingizni kuchli his qilasiz. Vaqt bilan bellashib, o'zib ketasiz. Fikringiz munavvar rang oladi. Kitoblarning ovozi eshitasiz. Bu ohang so'z bilan egizlashadi va balandlab-balandlab qoyalarni ortda qoldiradi.

## OTALAR IZIDAN

Bahrom AKBAROV, bolalar yozuvchisi

She'ming boshlanishi o'zimga sariyog'day yoqdi. Biroq tun qorong'usida hujradan qidirayotgan narsamni topolmay xunobim oshdi.

– Nima qilyapsan?

Bu gurillagan ovoz otamniki edi. She'r to'xtadi. Ilhom ketdi. Qo'limga boks qo'lqopi va ruchkani oldim. She'r yozmoqchi bo'lsam, ana shunaqa holat bo'ladi. Sizda-chi? Yo'qmi? To'g'ri. Shoir emas-siz-da.

– Siz bilan bo'rilar-ga qarshi kurashgani boraman! – dedim qat'iy.

– Barakalla! Ota o'g'ill! Bo'rilar tezroq quvishimiz kerak.

Otamning gapidan iyib ketdim.

Ko'zlarimga yosh quyildi. Shunday lahzada ilhom parisi yonimga chopib kelib, qulog'imga pichirlay boshladi:

*Men ham otam ortidan,  
Yo'lga tushdim, jangchiman.  
Qo'lga oldim qurolim,  
Qarang, katta ovchiman.  
Otam silab boshimni,  
– Mayli, birga yur, – dedi.  
– Sen ham endi yigitсан,  
Yonimizda tur, – dedi.*

She'rmi miyamning «fleshkasiga» joyladim-u, ko'chaga otildim. Aslida, shoshilinch holatlardagina she'r yozaman. Bafurja ijod qilsam ballada, poema, doston yozaman. Adabiyot o'qituvchimizga yozgan she'rlarimni ko'rsatsam: «Mag'zi puchroq. Qayta ishlagin. Vazn bilan turoqqa e'tibor ber, she'r ma'noli va shirali bo'lsin», degandan beri she'r o'rninga doston

(Davomi. Boshi o'tgan sonda)



## MEN, MATRAYIM VA TAMTUMBOY

(Hikoya)

yzadigan bo'ldim. Doston shirali bo'lishi shartmas, keyin fikrni oxirida aytayam bo'laveradi. Ballada esa... O, ballada... To'xtang, janobi oliylari, dedim o'zimga o'zim. Hozir buni vaqtimas. O'sha vaqtda dilingizdagi adabiyot haqidagi fikrlarni to'liq aytaverasiz. Hozir esa, kurashga! Men, Matrayim otalarimiz bilan Xarsangdara tomon yurish qildik. Xarsangdara! Ne-ne sinoatlarga boy makon. Tog'larga osilib qolgan sirli xarsangtoshlar yonida qaddini tik tutgancha o'sgan ming yillik archalar,

do'lana-yu tog'teraklar. Turong'illar dara ko'rkiga ko'rk qo'shib turadi. Bo'rilar so'qmoq yo'l bo'ylab, tog' etagidagi qo'ra tomon kelmoqda edi. Qo'ra yonidagi bo'ribosarlar xo'mrayib o'tirardi. Normamat tog'aning eshagi ular uchun «Vrag nomer odin» (Normamat tog'aning eshagiga bergan bahosi). Chunki eshak ulardan ham oldin xavfni sezardi-da. Shunday bo'lsa-da, ular Normamat tog'aning eshagiga hurmat yuzasidan vovullab unga jo'r bo'lishardi.

(Davomi bor)



## G'OLIBLAR SARALANDI

Umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida sportning basketbol, voleybol, gandbol va mini futbol turlari bo'yicha o'tkazilgan «Maktablar ligasi» sport musobaqalarining birinchi bosqichida 296 ta umumta'lim maktabidan jami 35 520 nafar o'g'il-qizlar qamrab olindi. Joriy yilning yanvar oyidan start olgan mazkur sport musobaqasi to'rt bosqichda tashkil etildi.



Umumta'lim maktablaridan saralangan jamoalar joriy yilning 10–15-iyun kunlari Uchtepa va Olmazor tumanlaridagi sport inshootlarida bo'lib o'tgan Toshkent shahar bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etishdi.

– Gandbol bo'yicha o'g'il bolalar

lashuv bosh hakami, Sport o'yinlariga ixtisoslashgan bolalar-o'smirlar sport maktabi direktori Sanjar Nazarov. – Voleybol bo'yicha Chilonzor tumani 90-umumta'lim maktabi qizlari hamda o'g'il bolalar o'rtasida Uchtepa tumani 107-umumta'lim maktabi jamoalari 1-o'rinni egallashdi.

Basketbol bahslarida o'g'il bolalar o'rtasida Mirzo Ulug'bek tumani 208-umumta'lim maktabi jamoasi, qizlar o'rtasidagi bellashuvda Chilonzor tumani 168-umumta'lim maktabi jamoalari 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Yuqori saviyada tashkil etilgan «Maktab ligasi» sport musobaqalari taqdirlash marosimida sport faxriylari ham ishtirok etishdi. Iste'dodli sportchilar tomonidan «Mahorat saboqlari» o'tkazildi.



jamoasidan 1-o'rinni Yunusobod tumanidagi 86-umumta'lim maktabi, qizlar o'rtasidagi bahslarda shu tumanning 271-umumta'lim maktabi jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi, – deydi bel-

Harakat va piyoda yurish – miyaga turtki berib, fikrni ishga soladi.

J.J. RUSSO.



Futbol o'yini o'zining jozibasi, kutilmagan vaziyatlarga boyligi bilan boshqa sport turlaridan ajralib turadi.

## «TOSHKENT YOSHLAR FUTBOL LIGASI» NIHOYASIGA YETDI

Mana bir necha yildirki, O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashabbusi bilan o'quvchilar o'rtasida turli turnirlar o'tkazilmoqda. O'zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahar Kengashi tomonidan ilk bor «Toshkent yoshlar futbol ligasi» tashkil etildi.

Prezidentimizning Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta tashabbus ijrosini ta'minlash maqsadida «Yoshlar oyligi» doirasida Yakkasaroy tumanidagi 26-umumta'lim maktabida turnirning final bosqichi hamda taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Ushbu ligada mintaqaviy bosqichlarda jami 960 dan ortiq yoshlar ishtirok etib, shahar bosqichida 250 nafar o'quvchi-yoshlar o'zaro do'stlik uchrashuvlarini o'tkazishdi. Toshkent shahridagi barcha tumanlardan saralanib, shahar bosqichiga yo'llanma olgan 14 ta umumta'lim maktabi o'quvchilari orasidan liga g'olibligi uchun maydonda Chilonzor hamda Shayxontohur yoshlari jamoalari to'p surdi. G'olib bo'lgan Chilonzor tumani 162-umumta'lim

maktabi jamoasi oltin medal bilan taqdirlandi va O'zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahar Kengashi terma jamoasiga aylandi.

– O'zbekiston – futbol iqtidorlariga boy davlat. Bolalar futbolini rivojlantirmay turib, yuqori saviyadagi kattalar futboliga erishib bo'lmaydi, – deydi O'zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahar Kengashi raisi A. Jumaboyev. – «Toshkent yoshlar futbol ligasi» o'quvchilarimizda futbolga bo'lgan qiziqishni orttirishiga ishonchimiz komil. Keyingi ligalarda 14 ta jamoaning o'rniga 20 ta jamoadan tashkil topgan ligani o'tkazishni rejalashtirdik.

Ushbu xayrli sport musobaqalari yoshlarni sportning futbol turiga qiziqishini yanada oshirish, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga doimiy jalb qilish va ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish barobarida o'quvchi o'rtasida iqtidorli futbolchilarni kashf etib, O'zbekiston futbolining yanada rivojlanishiga ko'maklashishi, shubhasiz!

Nurbek QIDIRALIYEV

## YOZDA «G'UNCHA» BAG'RIDA

Maktabimizda faoliyat yuritayotgan «G'uncha» sog'lomlashtirish oromgohida bolajonlar maroqli dam olishyapti. Har bir yangi kunni «Bilimdonlar», «Baxtli bolalar», «Umid uchqunlari», «Do'stlik» nomli guruh o'quvchilari ona Vatan, nurli kelajak haqidagi shiorlarni takrorlashdan boshlashadi. Tonggi jismoniy tarbiya mashqlaridan so'ng, o'quvchilar o'z qiziqishlariga ko'ra to'garaklarga bo'linadilar.

Dastlabki kundanoq bolalarning bir-birlari bilan do'stlashib ketganini bir ko'rsangiz edi. «Tilaklar guldastasi», «Dilkash davra maskanlari», «O'zbek milliy xalq o'yinlari», «Yosh sportchi» kabi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bolajonlarda katta taassurot qoldirmoqda. Muhtaram To'ychiyeva, Marg'uba Po'latova, Salomat Muhammadiyeva, Ma'furat Umaro-

va kabi ustozlardan barcha o'quvchilar-u ota-onalar mamnun. «Ta'til kunim qanday o'tyapti?» mavzusi-da muloqotlar o'tkazilib, bolalarning ta'til kunlarini mazmunli, taassurotlarga boy tarzda o'tishiga e'tibor qaratilyapti. Azizbek Allamurodov rasm chizishda g'oliblikni qo'ldan bergani yo'q. Ayniqsa, uning asfaltga chizgan «Biz baxtli oilamiz» nomli rasmi

barchaga manzur bo'ldi. Ustozi Akrom Vapayev uni yana bir bor alqab qo'ydi. Jamshid Toshmuhammedov esa «Eng kitobxon» o'quvchi sanaladi. U o'zbek va jahon xalq ertaklarini qo'lidan qo'ymay o'qiyapti. Yoshlar yetakchisi Maftuna Abdurashidova olib borayotgan «Ifodali o'qish» to'garagi ham o'quvchilar bilan gavjum. Barno Sultonova, Dilobar



Mirtursunova, Shohista Yo'ldosheva boshchiligidagi to'garaklarga qatnashishni istaydiganlar juda ko'p. Har o'n kunlik nihoyasida

o'quvchilar shahrimizning diqqatga sazovor joylariga sayohat qilishyapti. Faol o'quvchilar diplom bilan taqdirlanishyapti.

Zuhra UMAROVA,  
Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi 14-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi



# QO'SHTOPI SH MO'LOQLAR

Qush bo'ldi «U»dan boshlasam,  
«I»dan o'qisam,  
son-raqam.

Sinfdashim Karim,  
Yerni chopibdi.  
Nima ekibdi,  
Gulmi yo ...?

Ufqda gumbaz ko'rdim,  
Beqasam, ...?  
To kech raqsga tushar -  
Gul sanab, ...?

Bu - Qo'qon yo'li,  
Qamchiq ...?  
Bu shoir yozgan -  
Charxiy ...?



Anvar MIRZAZODA

## BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR! JADVALLI KROSSVORD

Ta'riflari jadval tarzida berilgan krossvordni hal eting va javoblar yozilgan raqamli xonalardagi harflar orqali hikmatli so'zni bilib oling.

HIKMAT					
4	2	1	6	-	
4	2	1	6	3	5
7	8	9	9	5	6
1. Kaykovusning mashhur pandnoma asari.					
2. Ho'l meva. 3. Sudralib yuruvchi jonivor.					
4. Metall birikmalari bo'lgan ma'dan.					
5. Sharq badiiy ijodiga mansub nazmiy janr. 6. ... Matchon (shoir).					
7. Qat'iy so'z, qasam. 8. O'yuvchi kimyoviy modda.					
9. Shirinlik turi. 10. Quyosh galaktikasidagi sayyoralaridan biri.					
11. Sabzavotli qovurma taom. 12. Non turi.					
13. Armanistondagi ko'l. 14. Dukkakli don.					
1. Og'ir, yumshoq rangli metall.					
2. Damli-klavishli musiqa cholg'u asbobi. 3. Lotin harfi.					
4. Kishilik olmoshi. 5. Ikkinchi nota.					
6. Yevropada joylashgan davlat.					
7. Koreya yarim orolidagi poytaxt shahar. 8. G'ildirak qismi.					
9. Erkin Vohidov dostoni. 10. Binokorlik ashyosi.					
11. Butun jahon, borliq. 12. Rohat, huzur.					
13. Avtomobil «yuragi».					
14. Erkaklarning milliy libosi.					
15. Janubiy Amerikadagi tog'.					
16. Aziz ne mat. 17. Mehnat.					

### Pazanda qizgal!



Aziz qizlar jon!  
Ayni damda rastalarda

sotilayotgan baqlajonlarning qanchalik to'yimli va darmondorilarga boyligidan xabaringiz bor-a? Ayrinlar baqlajonning taxir ta'mi kuchli bo'lgani uchun unchalik xushlamaydi. Ammo sizga bir sirni ochay. Baqlajonlarni ishlatishdan oldin kesib, so'ngra namakobga botirib qo'ysangiz, uning qora rangi chiqib ketadi va taxir mazadan xalos bo'ladi.

### SMETANALI BAQLAJONLAR



Bugun sizlarga o'rgatadigan smetanal baqlajonlarni salat sifatida ham iste'mol qilishingiz mumkin.

Buning uchun bizga 2 dona o'rtacha kattaligidagi baqlajon, 2 dona pomidor, 3 oshqoshiq mayonez yoki smetana, 2-3 dona sarimsoqpiyoz va qovurish uchun o'simlik yog'i kerak bo'ladi. Tayyormisiz, unda boshladik:

Ikkita baqlajonni uzunasiga kesib, avvalo, tuzli suvga botirib qo'yamiz. 10-15 daqiqadan so'ng ularni olib, quritamiz. Keyin tovaga yog' solib, ikkala tomonini qizartiramiz. Yog'ini saftkaga shindiramiz va chuqurroq idishga mayonez yoki smetana solib, unga sarimsoqpiyozni qirg'ichdan o'tkazib solamiz. So'ngra, pomidorni uzunasiga kesamiz. Smetanani baqlajonlarga surtib, ustidan pomidorlarni qo'yib o'raymiz.

Istasangiz, ularni ko'katlar bilan ham bezatishingiz mumkin.

Yoqimli ishtaha!

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

NARGIZA tayyorladi

8

24-iyun 2019



Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir  
Feruz AADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAYATI:  
Qahramon QURONBOYEV,  
Dilshod KENJAYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruz JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir  
Nodira NAZAROVA

Rassom  
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga bosmaxona mas'ul.  
Manzilmiz va bosmaxona manzili:  
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,  
30-uy. Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)  
e-mail: [tongyulduzi1929@gmail.uz](mailto:tongyulduzi1929@gmail.uz)  
telegram: [lme/tongyulduzi](https://t.me/lme/tongyulduzi)  
Adadi - 12621  
Buyurtma - V 3533

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqti - 18:00  
Topshirildi - 18:00  
Tel./faks: (99871) 244-63-08